


F.U. QODIROVA, Z.X. XUSNUDDINOVA

TIFLOPSIXOLOGIYA



930.2
Q-34.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

F.U. Qodirova, Z.X. Xusnuddinova

TIFLOPSIXOLOGIYA

DARSLIK

- 14715/172 -
211/9141

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA
VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI

«Yangi chirchiq» O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA
VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
TOSHKENT - CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

2025
AXBOROT RESURS MARKAZI

UO'K 930.2 .
KBK 63.3(5Y36)
Q-34

F.U. Qodirova, Z.X. Xusnuddinova

Tiflopsixologiya / darslik. –T.: «Yangi chirchiq book»
nashriyoti, 2025. – 124 b.

Mazkur darslik 60110400-maxsus pedagogika ta'lim yo'rialishi uchun tuzilgan bo'lib, tuzilishi va mazmuni, nazariy va amaliy yo'naltirilganligi, qo'laniladigan bo'limlarining maqsadga yo'naltirilgan ravishda ketma-ketligi hamda mavzularining aniqligi alohida ahamiyat kasb etadi. Tiflopsixologiya fani asosiy ixtisoslik fani hisoblanadi. Tiflopsixologiya darsligida materiallar o'quv rejada amalga oshirish rejalashtirilgan umumiy pedagogika, umumiy psixologiya, maxsus pedagogikaning klinik asoslari, maxsus pedagogika (mutaxassislikka kirish) kabi fanlar bilan uzviy aloqadorlikda bayon etilgan. Darslik maxsus pedagogika yo'nalishidagi talabalari, malaka oshirish va qayta tayyorlash kursi tinglovchilari, amaliyotchi maxsus pedagoglar, o'qituvchilar, ilmiy xodimlar hamda ota-onalar uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

CHDPU "Maxsus pedagogika" kafedra dotsenti **U.Y.Fayziyeva**
QDPI "Maxsus pedagogika" kafedrasi katta o'qituvchisi pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) **M.S.Maxmudova**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 25 avgustdagi 391-sonli buyrug'iga asosan darslik sifatida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-9027-5-8

KIRISH

Mamlakatimizda ta'lim tizimida davlat siyosati darajasiga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunda barcha sohalarda bo'lgani kabi maxsus pedagogika sohasida ham katta o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Har qanday mamlakatning kuchi uning intellektual salohiyati bilan belgilanadi. Barkamol shaxs tarbiyasini tashkil etish barcha davrlarda ham ijtimoiy jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi bo'lib kelgan. Tabiiyki, hozirgi ta'lim islohotlari sharoitida ham barkamol shaxs tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyat rivojining hozirgi bosqichida yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, manaviy-ma'rifiy o'zgarishlar ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali, zamonaviy kadrlar tayyorlash hamda ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirishni taqozo etmoqda. Mamlakatimizda ta'lim tizimiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Bunga birgina misol O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. Unda uzluksiz ta'lim tizimining har bir bo'g'inida ta'lim va tarbiya, bolalarni o'quv fanlari bo'yicha muayyan bilimlarni egallashlari barobarida, ularning bilim olishga bo'lgan ehtiyoji, mustaqil va ijodiy fikrlash, tashkilotchilik qobiliyatlari, amaliy tajriba va mehnat ko'nikmalarini rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarni, atrof-muhitga ongli munosabatni tarkib toptirishi lozimligi qayd etilgan. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'limini rivojlantirish maqsadida esa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-apreldagi PQ-209-son "Ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda ta'lim berish sifatini oshirish hamda ular faoliyatini

yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 18-apreldagi PQ-407-son "O'zbek imo-ishora tili va brayl alifbosini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori qabul qilingan. Ular ta'limi uchun yangi imkoniyatlar ochilib, yangi shart-sharoitlar yaratilib, adolatli ijtimoiy siyosat olib borilmoqda. Shu bilan birga, ularning huquqlari qonun bilan belgilab qo'yilmoqda.

Ushbu darslik oliy ta'lim muassasalarining 60110400-maxsus pedagogika yo'nalishidagi talabalari, ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasa va inklyuziv ta'lim sharoitida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilar hamda ota-onalar uchun mo'ljallangan.

Darslik yordamida ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalarning rixiy rivojlanishining o'ziga xosligi, pedagogik-psixologik tasnifi, bilish va hissiy-emotsional hamda faoliyat jarayonlari haqida bilib olish mumkin.